

ISAJON SULTON ROMANLARIDA QISH OBRAZI: RAMZ VA DRAMATIK VOSITA SIFATIDA

Yoʻldasheva Yulduzoy Axmadullo qizi,
Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi
Oʻzbek tili, adabiyoti va folklori instituti tayanch doktoranti
E-mail: yoldoshevayulduz312@gmail.com

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18932077>

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy adabiyotda peyzajning nazariy va poetik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Epshteyn nazariyasiga koʻra mavsumiy va landshaft peyzajlarning tasnifi yoritilib, ularning badiiy zamon-makon tizimidagi oʻrni yoritib beriladi. Asosiy eʼtibor Isajon Sulton romanlarida, xususan, “Bilga xoqon” asarida qish peyzajining badiiy funksiyasini ochib berishga qaratilgan. Qish tasviri orqali tarixiy voqealar drammatizmi, qahramonlar ruhiyati, milliy ong va ijtimoiy fojia ifodalanishi dalillar asosida koʻrsatib beriladi.

Kalit soʻzlar. Epshteyn, peyzaj, yil fasllari, qish, syujet, poetik obraz, ruhiy kechinma, portret, sovuqlik, badiiy detal.

Abstract. This article analyzes the theoretical and poetic features of landscape description in fiction. In particular, based on the theory of Mikhail Epstein, the classification of seasonal and landscape types of scenery is examined, and their role within the artistic system of time and space is elucidated. The main focus is placed on the artistic function of the winter landscape in the novels of Isajon Sulton, particularly in the novel Bilga Khagan. Through textual evidence, the study demonstrates how the depiction of winter conveys the dramatic intensity of historical events, the psychological state of the characters, national consciousness, and social tragedy.

Keywords: Epstein, landscape, seasons, winter, plot, poetic image, emotional experience, portrait, coldness, artistic detail.

Аннотация. В данной статье анализируются теоретические и поэтические особенности пейзажа в художественной литературе. В частности, на основе теории Михаил Эпштейн рассматривается классификация сезонных и ландшафтных пейзажей, а также раскрывается их роль в системе художественного времени и пространства. Основное внимание уделяется художественной функции зимнего пейзажа в романах Исажон Султон, в частности в произведении «Билге каган». На основе конкретных примеров показывается, как посредством изображения зимы выражаются драматизм исторических событий, внутренний мир героев, национальное сознание и социальная трагедия.

Ключевые слова: Эпштейн, пейзаж, времена года, зима, сюжет, поэтический образ, душевное переживание, портрет, холод, художественная деталь.

Kirish. Adabiyotshunoslikda mashhur rus olimi Epshteyn nazariyasiga koʻra, peyzajlarni turli mezonlar asosida tasniflashimiz mumkin. “Eng sodda tasnif – vaqt va makonga koʻra farqlanuvchi mavsumiy yoki landshaft peyzajlaridir”[1:13]. Mavsumiy peyzaj tabiatning yil fasllariga (bahor, yoz, kuz, qish) bogʻliq holatni aks ettiradi. Landshaft peyzaji esa tabiatning maʼlum bir geografik makonga (togʻ, dasht, choʻl, oʻrmon) xos belgilarini tasvirlashga xizmat qiladi. Har ikki peyzaj turi badiiy asarda oʻzaro uygʻunlashgan holda qoʻllanilib, qahramonlar ruhiyati va syujet dinamikasini yoritishda muhim vazifani bajaradi. “Badiiy zamon va makon asarning barcha unsurlarini

qamrab oladi. Jumladan, qahramonlarning kayfiyat-kechinmalarini badiiy zamon va makon tasvirisiz ko'rsatib bo'lmaydi".[2:191]

Har bir asarda tabiat tasviri, xususan, fasllar obrazining talqini muhim poetik vositalardan biri sanaladi. "Badiiy adabiyotda fasllar ko'pincha tabiatdagi o'zgarishlarni, unga muvofiq holda inson his-tuyg'ularini va hayot aylanishini tasvirlashda vosita sifatida foydalaniladi.[3:160] Peyzajlarning mavsumiy jihatdan farqlanishi voqealar rivoji, qahramonlarning ichki ruhiy holati hamda yozuvchining badiiy-estetik g'oyasi bilan chambarchas bog'liq.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. "Kanadalik adabiyotshunos Nortrop Fryening fikrlariga ko'ra, tabiatning uyg'onishi bahor bilan, keskinligi yoz bilan, fojiasi kuz bilan, sukunati qish bilan bog'liq holda talqin qilinadi".[4:161] Inson umrini yil fasllariga qiyoslab tasvirlash an'anasi mumtoz adabiyotimizga xos xususiyatlardan biridir. Ushbu an'ananing eng yorqin namunalaridan biri Alisher Navoiyning "Xazoyin ul-ma'oniyy" devoni hisoblanadi. "Ma'lumki, Navoiy hazratlari inson umrini yilning to'rt fasliga ko'ra tartib bilan bahor, yoz, kuz va qish tarzida belgilagan".[5:72] Mazkur an'ana zamonaviy adabiyotda ham davom etadi. Xususan, Isajon Sulton "Alisher Navoiy" romanini bahor faslining badiiy talqini bilan boshlagan bo'lsa, "Bilga xoqon" romanida qish manzaralari yetakchi o'rin tutadi. "Abu Rayhon Beruniy" romanida esa yoz fasli tasviri ustuvorlik kasb etadi.

"Bu faslning ham tabiatda o'ziga xos o'rni, fazilati, tirik mavjudot uchun zarurati, foydasi beqiyosdir. Bu munozara qilib o'tiradigan muammo emas. Qish fasliga o'zbek adabiyotida kam murojaat etishlik sotsial zamin, milliy hayot, yashash sharoiti va adabiy an'analar bilan bog'liq".[6:26] "Sharq adabiyotida bahor tabiatdagi uyg'onish, hislar, inson muhabbati bilan uyg'un fasl sifatida talqin qilib kelingan. Qish esa bahorga qarama-qarshi fasl bo'lib, inson umrining so'nggi choragi – qarilik bosqichiga o'xshatiladi".[7:18]

"O'zbek klassik adabiyoti va xalq og'zaki ijodida qish fasli ulug'lagan asarlar juda kam. Holbuki, ko'pgina xalqlar adabiyotida, jumladan rus adabiyotida qishning ajoyib obrazi yaratilgan asarlar juda ko'p uchraydi".[6:25] Bu hol rus adabiyotida qish faslining oddiy mavsumiy hodisa emas, balki muhim badiiy-estetik timsol sifatida qaralganidan dalolat beradi. "Rus poeziyasida qish milliy koloritni ham belgilaydi".[8:16] "Ehtimol, dunyo poeziyasining hech birida qish obrazi rus she'riyatidagidek ko'p qirrali va sermano tarzda namoyon bo'lmaydi".[1:169] Rus yozuvchilari ijodida qish insonning tabiatga bo'lgan estetik munosabatini, hayotga oid yuksak va g'ayrioddiy tasavvurlarni ifodalovchi badiiy timsol darajasiga ko'tariladi. Shu bois rus adabiyotida qishning zulmatli, dahshatli va sovuq qiyofasi kam uchraydi. Aksincha, qish – yorug'lik, poklik va bayram ramzi sifatida gavdalanadi.

"Vyazemskiy ijodida "qish – shunday quyoshli va charaqlagan ranglarda tasvirlanadiki, har qanday bahor uning oldida xira ko'rinadi".[1:170] Qish fasli Vyazemiskiy nazarida fasllar ichida eng go'zali. "Qish shunchalik go'zal bo'lishi uch un

esa tabiat kuzdagi o‘lim azobini boshdan kechirishi kerak. Yilning eng sovuq vaqtida, quyosh eng uzoqda bo‘lganida, u qor tufayli yanada yaqinlashgandek bo‘ladi – chunki qor sovuqqa qarshi yorug‘lik oqimi bilan javob beradi”. [1:170]

Muhokama. Isajon Sultonning “Bilga xoqon” va “Alisher Navoiy” romanlarida eng ko‘p uchraydigan obrazlardan biri ham qishdir. Ayniqsa, “Bilga xoqon” romanida qish manzaralari bir necha bor tasvirlansa-da, har safar yangicha badiiy yondashuv asosida talqin etiladi. Yozuvchi romanlarida bu faslning ramziy ma‘nosi ancha teran va rang-barangdir. Qish ba‘zan umid, ba‘zan qiyinchilik, iztirob va mashaqqat kabi majoziy ma‘nolarda qo‘llanib, qahramon ichki dunyosi murakkabligi va ma‘naviy kamolotini aks ettiruvchi qudratli poetik vositaga aylanadi.

Asarning birinchi bo‘limi sovuq va qahrli qish manzarasi bilan boshlanadi. Peyzaj tasviri ekspozitsiya vazifasini bajarib, kitobxonda muayyan hissiy kayfiyat uyg‘otadi va voqeani aniq makon bilan bog‘laydi. “Kichik yish” bobida muallif tog‘ etaklarida yashovchi xalqlarning tabiatning bor injiqliklariga, sinov va mashaqqatlarga sabr va bardosh ila kurashayotganini tasvirlaydi:

“Ko‘gman tog‘ etaklariga qish bola tashlagan, qor momoguldurak bilan yoqqan edi.

Yonma-yon ikki qo‘nalg‘aning kigiz to‘sqichi ochilib, oldin bir er, so‘ng yana bir er tashga chiqdi. Ikkisi-da tumog‘ini bostirib, po‘stin kiyib olgan ekan. Birining oti Ishbara yamtar edi, yamtar deb kuchi tanasiga sig‘mas alpni aytishadi. O‘rta bo‘yli, tumog‘i ostidan kokili chiqib turgan kichkina yigitcha esa Bulut edi”.[9:11]

“Yozuvchi qish fasli kelganini tasvirlashda qishga xos belgilarni sanab o‘tirmasdan, oddiygina qilib “qish bola tashlagan” deya ifodalaydi. Turkiylar qor momoguldurak bilan yog‘sa shunday deyishadi. Bu oddiylik roman kompozitsiyasiga xizmat qilgan deya olamiz”. [10:8] Ijodkor asarni bejizga qish tasviri bilan boshlamagan, chunki bu fasl o‘sha davr kishilari hayotida eng og‘ir sinov davri hisoblangan. Oziq-ovqat tanqisligi va odamlarning qahratonda tirik qolib kun kechirishi juda qiyin edi. Asarning badiiy-estetik ta‘sirini oshirish maqsadida yozuvchi aynan qahraton qishning qalin qor yog‘gan, izg‘irinli qish paytini tanlaydi. Isajon Sulton o‘tmish manzarasini chizishda badiiy detallar, portret va peyzaj kabi tasviriy vositalarga ham alohida ahamiyat qaratadi. Muallif peyzaj tasvirlari bilan bir qatorda Bulut va Ishabar yamtar singari qahramonlarning portretini ham yaratadi. Bu obrazlar turk xalqiga xos xarakter va milliy fazilatlarini aks ettiradi. Tabiat tasviri qahramonlarning ichki holatini aks ettirsa, qahramonlar tasviri esa tabiat manzarasini yanada to‘ldiradi va jonlantiradi.

Yozuvchining peyzaj yaratishdagi mahoratini kuzatar ekanmiz, uning tabiatga nisbatan juda sinchik bo‘lganligini his qilamiz. “Tabiatdagi har bir o‘zgarish, hatto kuz o‘rnini qish, bahor o‘rnini yoz egallashida ilhom egalari o‘zgacha bir hikmat ko‘ra bilishadi. Bahor, kuz, qish, yoz manzaralari insonga butun umri davomida yo‘ldosh bo‘lganligi uchun ham ijodkor bu mo‘jizaviy hodisalarni o‘zgacha shavq bilan o‘z asarlariga olib kiradi. Ijodkor yil fasllarining manzarasini ko‘chirib qo‘ymaydi, balki bu

manzaralarga o‘zining hissiyotlarini, yuragining tubida jo‘sh urayotgan g‘alayonlarini ham qorishtirib yuboradi”. [11:86]

Tabiatning shiddatli tasviri ortidan ikki qahramonning elchilik safariga chiqishi tasvirlanadi. Isajon Sulton qahraton qishni shunchaki tasvirlash bilan cheklanmay, rang-barang badiiy bo‘yoqlar yordamida jonlantiradi, tabiatni tirik va harakatdagi kuch sifatida namoyon etadi. “Chinakam ijodkor borliqni hech qachon shunchaki tomoshabin singari loqayd va betaraf aks ettirmaydi, u tasvir predmetini aniqlayotgan, ifoda yo‘sinini belgilayotgan paytidayoq ruhiy muvozanati buzilib, xolislik vaziyatidan chiqadi va atrof olamni faqat o‘ziga xos nazar bilan ko‘ra boshlaydi”. [12:18]

“Qattiq qish o‘z yoyini olib tevarakka muz o‘qlarini otgan, qordan to‘siq yasab, izg‘irin cherigini yoygan kez, ikki to‘p otliq To‘qqiz o‘g‘uz yeridan chiqib, bir qismi Yaris cho‘lidan o‘tib Shantunga, Tabg‘ach eliga, yana biri undan-da yiroqqa – jangju xoqoniga so‘z yetkazish uchun elgan edi”. [9:17]

Peyzaj tasvirida qor – yer yuzini berkitgan oppoq parda, qish – o‘z sovuqligini atrofga sochayotgan yoy, muz o‘qlari – tabiatga shafqatsizlarcha sochilayotgan zarbalar, izg‘irin cherigi esa – butun olamga hujum qilayotgan sovuq shamoldir. Yozuvchi qish faslini o‘qi, yoyi va cherigi bor jangchi sifatida tasvirlab, tabiatni inson taqdiriga bevosita ta‘sir ko‘rsatuvchi kuch darajasiga ko‘taradi.

Natijalar. Badiiy asarda peyzajdan ikki xil usulda foydalanish mumkin: qahramonning ruhiy holati bilan tabiat tasviri parallel ya‘ni uyg‘un ravishda yoki qarama-qarshi yo‘sinda tasvirlash. Isajon Sulton romanlarida qish fasli tasviri ko‘pincha tarixiy va ijtimoiy fojialar bilan parallel qo‘yiladi. Keyingi tasvirlarda ham bu fasl Tabg‘ach davlatining kuchayishi sababli turkiy xalqlarning boshiga tushgan qayg‘u va musibatlar bilan uyg‘unlashtiriladi:

“Ho‘kiz yili Tangritog‘ etaklariga shunday keldi. Qirov-bulduruqlar osilib-osilib yotdi, suvlar tubigacha muzladi.

Tabg‘ach to‘la kuchga kirgan, muchal uch aylanguncha bo‘lmay so‘ngsiz cho‘llarni, yalang yerlarni, tog-u toshlarni yurt tutgan shu tikbosh, ishonuvchan, to‘g‘riso‘z budun boshiga qayg‘u keltirgan edi. Tabg‘achlar ko‘chib yurishni yoqtirishmas, shu sababli o‘zg‘irlikda turkiylarga yeta olishmas, tabg‘ach ko‘ch-ko‘ronini ko‘tarib yarog‘ini jamlab ulgurgancha ular otlariga minib ko‘zdan g‘oyib bo‘lib ketishardi. Bir qancha ulus kuchli u yog‘iydan shu tariqa saqlansa-da, bora-bora ozib-to‘zib, yalang oyoq, to‘nsiz-oshsiz kun kechirardi”. [9:25]

“Ho‘kiz yili” turkiy xalqlarning urf-odatlariga ko‘ra hayvonlar yiliga asoslangan taqvim tizimidir. Yozuvchi bu tarixiy davrni turk buduni uchun nihoyatda og‘ir va sinovlarga boy davr bo‘lganligini izohlaydi. “Qirov-bulduruqlar osilib-osilib yotdi, suvlar tubigacha muzladi” kabi tasvirlar tabiatning shafqatsiz qiyofasini ochib beradi. Suv – hayot manbai, poklik va davomiylik ramzidir. Ammo romanda suvning tubigacha muzlashi hayotning to‘xtab qolgani, umidlarning so‘nib borayotgani va sovuqning barcha

narsani o‘z ta’siri ostiga olganining ramzi bo‘lib kelmoqda. Xalq ochlik va yo‘qsillikdan tobora tubanlashib boradi, xuddi muzlagan suv singari qalblari ham soviydi, rahm-shafqat yo‘qola boshlaydi. Odamlar asta-sekin inson qiyofasini yo‘qotib, hayot uchun kurashda hayvonga aylanib borayotgandek ko‘rinardi.

Isajon Sulton qish tasviridan so‘ng yana bir muhim detalga ahamiyat qaratadi: “Otlar sirg‘anmasin deya tuyog‘iga to‘qush(mato) bog‘lanadi”. “Yozuvchining o‘tmish manzarasini tasvirlashdagi mahorati asarda badiiy detallar, portret va peyzaj kabi tasviriy vositalarning qo‘llanilishida ham namoyon bo‘ladi. Qahramonlar hayot tarzi bilan bevosita bog‘liqlikda yozuvchi o‘sha davr kishilari ishlatgan narsa-buyumlarga ham murojaat etadiki, bu voqealikning badiiy tasvirida haqqoniylikni ta‘minlashga xizmat qiladi”.[13:48]

Shu birgina detal ham asarda o‘zining bir qator badiiy funksiyalariga ega. U, avvalo, tarixiy haqiqatni aks ettiradi, o‘sha davr kishilarining kundalik hayoti, yashash sharoiti va safar davomidagi qiyinchilik va muammolarni ko‘rsatib beradi. Shu bilan birga, bu detal tabiatning kuchi oldida insonlarning zaif ekani, yashash uchun esa kurashish va moslashish muhim ekanini ta‘kidlaydi.

Xulosa. Isajon Sultonning tarixiy romanlarida fasllar o‘ziga xos estetik kechinmani ifodalaydi va asar syujetiga hamohang tarzda tasvirlanadi. Yozuvchi yilning to‘rt faslidan ba‘zan quvonchli, ba‘zan g‘amg‘in ohanglarda peyzaj yaratadi. Shuningdek, fasllarning takrorlanmas xususiyatlari, ularning rang-barang ko‘rinishi va manzaraviy nozik jihatlari yozuvchi nigohida chuqur poetik ma‘noga ega bo‘ladi. Ba‘zan ular azaliy qonuniyatlari asosida ifodalansa, ba‘zan insoniy tuyg‘ularning ramzi sifatida namoyon bo‘ladi.

Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Епштейн. М.Н. Природа, мир, тайник вселенной. – Москва: Высшая школа, 1990.
2. Улуғов А. Замон ва макон мусаввири // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2015. № 2.
3. Abdullayeva F. Navoiy she‘riyatida qish tasviri poetikasi. “Alisher Navoiy adabiy va ilmiy merosini o‘rganish masalalari” mavzusidagi 64 - ilmiy xalqaro konferensiya. – B.160.
4. Nortrop Frye. Anatomy of Criticism: Four Essays. – Princeton, 1957.
5. С. Жуманова. Усмон Азим балладаларида табиат тасвири: Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Фарғона, 2022.
6. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. 14. Султонова М. Пейзаж санъати. – Тошкент: Фан, 1983. – Б. 26.
7. Эркинов А. Навоий пейзаж устаси. – Тошкент: Фан, 1988.
8. Йўлдошев Н. Чўлпон шеърисида пейзаж. Филология фан. ном. дисс. Автореф. – Тошкент: 1994.
9. Исажон Сulton. Билга хокон. – Тошкент: Factor books, 2022.
10. Madaminova.D. Badiiy mahorat va uslubiy individuallik(Isajon Sulton nasri misolida). – Urganch: Xorazm yoshlari nashriyot-matbaa uyi, 2023.
11. Narziyeva M. Badiiy qiyofa va manzara yaratishning adabiy-poetik tadqiqi. – Toshkent: Science and Innovation, 2024.
12. Йўлдошев Қ. Бадий таҳлил асослари. – Тошкент, 2016.